

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Iqtisodiyot fakulteti "Iqtisodiyot va menejment" kafedrasida katta o'qituvchisi Zulayxo Kazakova tomonidan "Agrosanoat tarmoqlari iqtisodiyoti" fanining "Qishloq xo'jaligida asosiy va aylanma fondlar hamda ulardan foydalanish samaradorligi." mavzusi bo'yicha tayyorlagan ochiq ma'ruza darsi ishlanmasiga

TAQRIZ

Ushbu mavzu O'zbekiston iqtisodiyoti, ayniqsa qishloq xo'jaligi tarmoqlarini modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va resurslardan oqilona foydalanish masalalarida nihoyatda dolzarb hisoblanadi. Asosiy va aylanma fondlardan to'g'ri foydalanish ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish, mahsulot hajmini oshirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Mavzuda qishloq xo'jaligida asosiy fondlarning (yer, bino, texnika, irrigatsiya tizimlari va boshqalar) hamda aylanma fondlarning (urug'lik, yoqilg'i, o'g'it, yem-xashak, materiallar va boshqalar) tarkibi, ularning ishlab chiqarish jarayonidagi o'rni keng yoritilgan. Ma'ruzada quyidagi masalalarga alohida e'tibor qaratilgan: asosiy va aylanma fondlarning iqtisodiy mohiyati; ularning turlari va tarkibi; fondlardan foydalanish samaradorligini baholash usullari; asosiy vositalarning eskirishi va yangilanish ko'rsatkichlari; qishloq xo'jalik korxonalarida resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish yo'llari. Tahliliy qismda ishlab chiqarish samaradorligi, fond qaytimi, fond sig'imi, mehnat unumdorligi kabi ko'rsatkichlar o'rganilgan va statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilingan.

Ishda qishloq xo'jaligida moddiy-texnika bazasini mustahkamlash orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning ilmiy asoslari keltirilgan. Muallif ishlab chiqarish vositalaridan foydalanish samaradorligini baholashda zamonaviy iqtisodiy tahlil usullaridan foydalangan. Ish natijalari qishloq xo'jaligi korxonalari, fermer xo'jaliklari va agrosanoat tarmoqlarida iqtisodiy boshqaruvni takomillashtirishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kazakova Z. tomonidan ochiq ma'ruza darsi uchun tanlangan "Qishloq xo'jaligida asosiy va aylanma fondlar hamda ulardan foydalanish samaradorligi." mavzusi "Agrosanoat tarmoqlari iqtisodiyoti" fanining fan dasturi va ishchi o'quv dasturi (sillabusi)ga to'liq mos keladi.

Umuman olganda, ochiq ma'ruza dars ishlanmasi yangi interfaol pedagogik texnologiyalar bo'yicha taqdimotlar, ma'ruza matni, test savollari qilingan holda pedagogik faoliyat va o'quv faoliyat natijalari bir-biriga bog'langan holda to'liq ko'rsatilgan hamda o'quv-uslubiy jihatdan to'g'ri ishlab chiqilganligini hisobga olib, talabalarga dars o'tish jarayonida foydalanishni maqsadga muvofiq deb hisoblayman.

"Iqtisodiyot va menejment"
kafedrasida dotsenti, i.f.n.



I.Salamov

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Iqtisodiyot fakulteti “Iqtisodiyot va menejment” kafedrası katta o‘qituvchisi Zulayxo Kazakova tomonidan “Agrosanoat tarmoqlari iqtisodiyoti” fanining “Qishloq xo‘jaligida asosiy va aylanma fondlar hamda ulardan foydalanish samaradorligi.” mavzusi bo‘yicha tayyorlagan ochiq ma’ruza darsi ishlanmasiga

T A Q R I Z

Mazkur mavzu bugungi kunda qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash jarayonida dolzarb ahamiyatga ega. Qishloq xo‘jaligida asosiy va aylanma fondlardan oqilona foydalanish ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, mahsulot tannarxini pasaytirish hamda foyda miqdorini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, bu masala O‘zbekiston agrar siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Ochiq ma’ruza darsining mavzusi “Agrosanoat tarmoqlari iqtisodiyoti” fanining fan dasturi va ishchi o‘quv dasturi (sillabusi)ga to‘liq mos keladi, ma’ruza dars ishlanmasi yangi interfaol pedagogik texnologiyalar bo‘yicha taqdimot qilingan holda uslubiy tomondan to‘g‘ri tanlangan. Ishlanmada ochiq ma’ruza darsining rejasi, maqsad va vazifalari, o‘qitish pedagogik texnologiyalari, taqdimotlar berilgan bo‘lib, unda pedagogik faoliyat va o‘quv faoliyat natijalari to‘liq ochib berilgan. “Qishloq xo‘jaligida asosiy va aylanma fondlar hamda ulardan foydalanish samaradorligi” ma’ruza mavzusi boyicha ta‘lim texnologiyasi, matnida asosiy fondlar hamda aylanma fondlarning mohiyati, tarkibi va ishlab chiqarishdagi o‘rni keng yoritilgan. Asosiy va aylanma fondlarning iqtisodiy mazmuni, ularning tarkibi va manbalari, fondlardan foydalanish samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar, eskirish, amortizatsiya jarayoni va hisoblash usullari, fondlardan foydalanishni samarali tashkil etish yo‘llari nazariy ma’lumotlar amaliy misollar bilan boyitilgan, formulalar orqali iqtisodiy ko‘rsatkichlar aniqlangan. Ishda tahliliy yondashuv va tizimli fikrlash uslubi qo‘llanilgan.

Ma’ruzada qishloq xo‘jaligida moddiy-texnika bazasini takomillashtirish, asosiy vositalarning qaytimi va aylanma mablag‘lar aylanishini tezlashtirish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga oid ilmiy asoslangan takliflar ilgari surilgan. Mazkur natijalar fermer xo‘jaliklari, qishloq xo‘jalik korxonalari va iqtisodiy tahlilchi mutaxassislar faoliyatida amaliy qo‘llanishi mumkin.

Umuman olganda, Z.Kazakova tomonidan tayyorlangan “Qishloq xo‘jaligida asosiy va aylanma fondlar hamda ulardan foydalanish samaradorligi” mavzusidagi ma’ruza ishlanmasi “Ochiq ma’ruzalarni tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risida Nizom” talablariga mos keladi va uni o‘quv jarayonida foydalanish uchun tavsiya etaman.

**Samarqand agroinnovatsiyalar
va tadqiqotlar instituti “Iqtisodiyot
va buxgalteriya hisobi” kafedrası
mudiri, i.f.d. (PhD).**



Babaxolov Sh.B.